



Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

**FARG'ONA VODIYSINING SOPOL BUYUMLARI TARIXI MASALASIGA
 BAG'ISHLANGAN ARXEEOLOGIK TADQIQOTLAR TAHLILI
 (XX-XXI ASRLAR TADQIQOTLARI MISOLIDA)**

Mahliyo Turdixo'jayeva

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: sopol, hunarmandchilik, angob, ko'za, xum, sopollar tipologiyasi, Quva sopollari, Axsikent sopollari.

Annotatsiya: Maqolada Farg'ona vodiysi arxeologik tadqiqotlarida sopollar masalasi qayd etilgan bo'lib, ushbu muammo doirasidagi bir qator materiallar tahlili keltirilgan. Vodiy arxeologik obyektlarida uchraydigan sopol topilmalarini tadqiq etgan farg'ona shunus arxeologlar xulosalari maqolada aks etgan. Shuningdek, sopol buyumlar masalasiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va ulardagi nazariy-metodologik jihatlar keltrilgan. Farg'ona vodiysining qizil angobli sopol buyumlarining turli tiplari va ularning xronologiyasi xususida fikrlar ilgari surilgan. Yu.Zadneprovskiy, I.Axrarov, V.Shishkin, B.Litvinskiy, A.Anorboev, B.Abdulgaziyeva, Ya.G.Gulyamov, M.E.Masson, A.N.Bershtam, V.D.Jukov, T.G.Oboldueva, E.A.Davidovich, B.X. Matboboyev kabi mashhur arxeolog-tarixchilarining Farg'ona tarixiga bag'ishlangan asarlarida hunarmandchilik va sopol buyumlar tipologiyasi haqidagi nazariyalari qiyoslanib, tadqiqotlardagi farqli jihatlar aniqlangan. Natalya Gorbunovaning qabr topilmalari asosidagi qadimgi sopol buyumlar va sopol yasash texnikasining Farg'ona vodiysidagi boshqa hududlarda uchramaydigan jihatlari haqidagi fikrlari keltirilgan. Sopol hunarmandchiligi shaharsozlik madaniyati bilan uzviy holda o'rganilib, stratigrafiya va sopol majmuasi tarkibi masalalarini aniqlashtirishga qaratilgan hamda bir qator tadqiqotlarning xulosalari taqdim etildi. Farg'ona qabro qadimgi sopol buyumlarni turli tiplarga va davrlarga ajratgan arxeolog olima N.Gorbunovaning ham ishlari keltirilgan bo'lib, uning qabr topilmalari asosida qadimgi sopol buyumlar tahlilini bergan

tadqiqotlaridagi sopol yasash texnikasining Farg'ona vodiysida boshqa hududlarda uchramaydigan darajada ekanligini asoslashga urinilgan fikrlari keltirilgan. Shu bilan birga, Litvinskiyning O'rta Osiyoning turli mintaqalaridagi qabristonlarning kulolchilik buyumlarining farqlari va o'zaro bog'liqligini ochib bergan ilmiy ishlari va ularning o'ziga xos jihatlari tarixshunoslik jihatidan tahlil etilgan. Sopol buyumlar shakllarining evolyutsiyasi va xronologiyasi masalalari ham maqolada vodiy misolida tadqiq qilingan. Arxeoglarning Farg'ona vodiysi kulolchilik buyumlarining tasnifi keltirgan. Farg'ona vodiysining qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan tadqiq etishda sopol topilmalarning o'rni katta ekanligi hamda ular bilan ishslashda qo'llaniladigan usullarni yanada mukammallashtirish zarur ekanligi kabi takliflar bilan xulosalangan.

ANALYSIS OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH DEDICATED TO THE PROBLEM OF THE HISTORY OF CERAMIC ITEMS OF THE FERGONAH VALLEY (IN THE EXAMPLE OF RESEARCH OF THE XX-XXI CENTURIES)

Mahliyo Turdihojayeva

PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Pottery, crafts, angob, jug, khum, typology of ceramics, Kuva ceramics, Ahsikent ceramics.

Abstract: The article touches upon the problem of ceramics in the archaeological research of the Ferghana Valley, provides an analysis of a number of materials within the framework of this problem. The article contains the conclusions of Fergana archaeologists who studied ceramic finds found at the archaeological sites of the valley. A classification of scientific articles and theoretical and methodological aspects in them is also given. Opinions are expressed about various types of red angobe ceramics of the Ferghana Valley and the periods to which they belong. Well-known archeologists such as Y. Zadneprovsky, I. Akhrorov, V. Shishkin, B. Litvinsky, A. Anorboev, B. Abdulgaziev, Ya.G. Gulyamov, M.E. Masson, A.N. Bernshtam, V.D. Zhukov, T.G. Oboldueva, E.A. Davidovich, B. Kh. Matboboev in the works of historians on the history of Fergana, theories about the typology of crafts and ceramics are compared, differences in research are revealed. The theories of Natalia Gorbunova about ancient ceramics based on funerary finds and aspects of the pottery technique of the Ferghana Valley not found in other regions are presented. Pottery was studied in organic connection with the culture of urban planning, aimed at clarifying the issues of stratigraphy and the composition of the ceramic complex, and a number of factual materials were presented using the results of

archaeological expeditions organized in the valley. In conclusion, such assumptions are made as the importance of ceramic finds in socio-political, economic and cultural studies of the ancient and early medieval history of the Fergana Valley and the need for further improvement of the methods used when working with them.

АНАЛИЗ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПОСВЯЩЕННЫХ ПРОБЛЕМЕ ИСТОРИИ КЕРАМИЧЕСКИХ ИЗДЕЛИЙ ФЕРГОНСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ПРИМЕРЕ ИССЛЕДОВАНИЙ XX-XXI ВЕКА)

Махлиё Турдиходжаева

Докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Керамика, ремесла, ангоб, кувшин, хум, типология керамики, Кувинская керамика, Ахсикентская керамика.

Аннотация: В статье затрагивается проблема керамики в археологических исследованиях Ферганской долины, дается анализ ряда материалов в рамках этой проблемы. Статья содержит выводы ферганских археологов, изучавших керамические находки, обнаруженные на археологических памятниках долины. Также дается классификация научных статей и теоретико-методологических аспектов в них. Высказываются мнения о различных типах красной ангобской керамики Ферганской долины и периодах, к которым они относятся. Известные ареологи, такие как Ю.Заднепровский, И. Ахоров, В. Шишгин, Б. Литвинский, А. Анорбоев, Б.Абдулгазиева, Я.Г. Гулямов, М.Е. Массон, А.Н. Берништам, В.Д. Жуков, Т.Г. Оболдуева, Е.А. Давидович, Б. Х. Матбобоев в работах историков по истории Ферганы сопоставляются теории о типологии ремесел и керамики, выявляются различия в исследованиях. Представлены теории Натальи Горбуновой о древней керамике, основанные на погребальных находках, и аспектах гончарной техники Ферганской долины, не встречающихся в других регионах. Гончарные промыслы изучены в органической связи с культурой градостроительства, направлены на выяснение вопросов стратиграфии и состава керамического комплекса, а также представлены ряд фактических материалов с использованием результатов организованных в долине археологических экспедиций. В заключении высказаны такие предположения, как значение керамических находок в социально-политических, экономических и культурологических исследованиях древней и раннесредневековой истории Ферганской долины и необходимость дальнейшего совершенствования методов, применяемых при работе с ними.

KIRISH

Tarixchilarning doimiy tarzda e'tiborini tortib keluvchi masala inson o'tmishi hisoblanib, o'ziga xos hayratga egadir. Ehtimol, bu hayrat qadimgi insonlardan qolgan buyumlarda namoyon bo'ladi. O'tmish svilizatsiyalarining yodgorliklari, inson tomonidan yaratilgan moddiy ashyolar, ibodatxonalar, dafn qoldiqlari va boshqalar qadimgi xalqlar fikri va dunyoqarashlarini tushunishimiz uchun vosita hisoblanadi. Ushbu qadimiylar jarayonlarni tushunishga intilishda insonning qiziqishi ba'zan tadqiqotlar ko'lамини oshirishga olib keldi.

Arxeologiya aniq faktlarga asoslangan fan hisoblanib, u doimiy rivojlanishda yangi tadqiqotlarga katta hissa qo'shadi. U nafaqat ilmiy ma'lumotlarni kengaytiradi, qolaversa ba'zilarini qayta ko'rib chiqishga ham imkon yaratadi. Insoniyat taraqqiyotida asosiylar ro'l o'ynovchi kulolchilik loydan ishlangan birinchi sopol buyumlar neolit davrining ulkan kashfiyotlaridan biri ekanligi barchamizga ayon. Arxeologik obyektlarda eng ko'p uchraydigan topilmalar ham bu *sopol mahsulotlari hisoblanib, ularning saqlanish darajasi, uning tarkibi, pishirish sifati hamda topilgan joyning namligi, sho'rliqi bilan ham bevosita a'loqador. Yaxshi pishirilgan sopol buyumlar yaxshiroq saqlanadi, parchalanish holati deyarli bo'lmaydi¹. Sopolning yuzaga kelishi insoniyat jamiyatini rivojining yangi bosqichga o'tishini belgilab bergen o'ziga xos texnologik proyutuq, chunki bu inson tomonidan yaratilgan birinchi sun'iy materialdir². Yillar o'tib undan turli ehtiyojlar uchun foydalaniilgan.

Farg'ona vodiysining sopol buyumlari tarixi masalasida Yu.Zadneprovskiy, I.Axrarov³, V.Shishkin, B.Litvinskiy, A.Anorboyev, B.Abdulgaziyeva⁴ va boshqa bir qator farg'ona shuning arxeologlar juda ko'p bora to'xtalganlar. Biz tadqiq etayotgan hudud madaniyati bilan shug'ullangan bir qator arxeolog olimlar ham o'z tadqiqotlarida vodiyning sopol madaniyatini ham chetlab o'tmag'anlar. Masalan, Ya.G.Gulyamov, M.E.Masson, A.N.Bershtam, V.D.Jukov, T.G.Oboldueva, E.A.Davidovich, B.X. Matboboyev va boshqalar. 1939 yil Katta Farg'ona kanali qurilishi munosabati bilan bu davrdagi arxeologik kuzatuv jarayonlarida T.G.Obolduevaning olib borgan ishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Muallif qo'lda yasalgan va sirtiga to'q qizil bo'yoq bilan gul solingan sopol parchalarini aniqlagan hamda ularni Turkmanistondagi Anov I madaniyati topilmalari bilan o'zaro qiyosiy tahlil etgan holda o'rgangan⁵.

Farg'ona vodiysining arxeologik o'rganilishida A.N. Bernshtam boshchiligidagi 1946-1948-yillarda Pomir-Oloy va 1950-yillardagi Pomir-Farg'ona ekspeditsiyalarining amalga oshirgan arxeologik qazishmalari va ularning ilmiy, asoslangan xulosalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi⁶. Ushbu ekspeditsiya faoliyati vodiyning ko'plab hududlarini o'rgangan bo'lib,

¹"Sopol" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, keramike (kulolchilik san'ati), keramos (loy) degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu atama arxeologlarining ta'riflashicha, odamlar foydalangan eng muhim va qadimiy texnologiyalaridan biri - pishirilgan loydan buyumlar ishlab chiqarish va birinchi navbatda, turli maqsadlar uchun foydalaniilgan predmet hisoblanadi.

² Ахмедов Ж.. Моддий маданият ёдгорликларини консервация қилиш, таъмирлаш ва сақлаш// Ўзбекистонда Ижтимоий Фанлар №4/2021.-Б.46-51

³ Бердников И. М., Д. Н. Лохов. Керамика в археологии: описание, анализ, методы исследования : Учеб. Пособие Изд-Во ИГУ, 2014. -С.163.

⁴ Ахроров И. Керамика Ферганды IX-XII вв. Авт. –Т.,1966 . 13 с.

⁵ Абдулгазиева Б. Керамика поселения гончаров Камолтепа //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар –Т.,1995. № 5 . –С.41-46

⁶ Оболдуева.Т.Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского канала имени И.В.Сталина// Труды института истории и археологии. Том IV. –Т.,1951.–С.8-10.

⁶ Бернштам А.Н., Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26.1952. С.186-189, Турдиҳўжаева М.М. Фарғона водийсида амалга оширилган археологик экспедицияла р тарихидан // Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари . –Н.,2020.–Б.60-63.

ekspeditsiya rahbari Bernshtam O'sh vohasida bo'yoq bilan gul solingan va qo'lida yasalgan sopollarni topdi va ularni Farg'onadagi ilk dehqonchilik madaniyatiga xos deya xulosa berdi. Bundan tashqari arxeolog O'sh yaqinidan bronza dasht madaniyatiga oid sopol buyumlarni ham aniqladi. Aynan mana shu topilmalar Berntashmga vodiyning ikki xil xo'jalik turiga asoslangan madaniyati mavjud ekanligi haqidagi xulosa berishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Farg'onanining ko'plab hududlarida uchraydigan qizil *angobli sopol buyumlarni turli tiplarga va davrlarga ajratgan arxeolog olima N.Gorbunovadir⁷. Natalya Gorbunova qabr topilmalari asosida qadimgi sopol buyumlar tahlilini bergan bo'lib, sopol yasash texnikasining Farg'ona vodiysida boshqa hududlarda uchramaydigan darajada ekanligini asoslashga uringan. Olima ushbu davrga tegishli bo'lgan sopol buyumlarning barchasini ikki asosiy guruhga bo'ladi. Birinchisi qo'lida yasalgan tur, ikkinchisi maxsus charxda yasalgan buyumlar. Birinchi guruhga kiruvchilar 58% ni, ikkinchi guruh esa 42% ni tashkil etishini asarida keltiradi. Har ikki guruhda sopolning yasalish jarayonini tizimli tarzda keltirib o'tadi. Shuningdek Gorbunova birinchi guruhga kiruvchi sopollarni ham o'z navbatida to'rt guruhga taqsimlaydi, ular quyidagilar:

1. yorqin sariq rang bilan qoplangan silliq sopollar
2. qora-qizil bo'yoq bilan chizilganlar
3. naqshlar bilan bezatilganlar
4. jigarang va qora sopol buyumlar.

ikkinchi guruhdagagi sopollar 4 qismga ajralib, asosiy ya'ni 64% ni ko'zalar, 43% ni kosalar tashkil etadi. Gorbunovaning 1986-yilda nashr etilgan qadimgi Farg'ona madaniyatiga bag'ishlangan katta fundamental asaridagi⁸ ushbu ma'lumotlar juda katta tahliliy jihatlarni o'zida namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Yuqorida keltirilgan guruhlar va ularning tarkibiy qismining barcha jihatlarini tahlil etgan olima sopol buyumlar tiplarini katta qiziqish bilan o'rgangan. Olima Farg'ona sopollari masalasiga bag'ishlab bir qator maqolalar yozgan bo'lib, ularning barchasida sopol hunarmandchiligi orqali qadimgi odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi faol ishtiropi tahlil etilgan⁹.

Farg'ona vodiysining qo'lida yasalgan bezakli sopollarining kelib chiqishi va yoyilishi masalasida Yu.A. Zadneprovskiyning fikrlari muhim ahamiyatga ega. U birinchilardan bo'lib, o'rta asrlarda yasalgan naqshli sopol buyumlar tarqalish arealini Qoraxoniylar davriga mos ekanligi nazariyasini ilgari surgan. Shuningdek, olim bu turdagagi sopollardagi naqsh elementlari bo'yicha ularning Farg'ona da so'nggi bronza va ilk temir davridan ilk o'rta asrlarga qadar mavjud bo'lgan madaniyatlarga bog'lashga ham uringan. Shunday bo'lsa-da, har bir davring sopollari bir-birlaridan turli xususiyatlari va elementlari bilan farq qiladi. Yu.A.Zadneprovskiyning yana bir 1962-yilda e'lon qilingan Farg'ona vodiysining bronza va ilk temir davri yodgorliklariga bag'ishlangan monografiyasida ilk bor Chust davri sopol buyumlari haqida tahliliy fikrlar berilgan¹⁰.

* Angob so'zi (fransuzcha engobe - qoplama) degan ma'noni anglatib, yupqa qatlamlı suyuq rangli loy yuzasiga nisbatan qo'llaniladi. Uning amaliy funktsiyasi dekorativ xususiyatga ega ekanligi hamda, idishning yuzasiga estetik chiroy beradi, tashqi ko'rinishi va jismoniy xususiyatlarini yaxshilaydi ya'ni suvgaga chidamlilik darajasini oshiradi. Angobning texnikasi qadimgi davrlarda keng tarqalgan.

⁷ Хошимов Б..Фарғонашунос археологлар .–Ф., 2020.–Б.157

⁸.Gorbunova N.G. The culture of ancient Ferghana.–Л.,1986. –P.39-42

⁹ Горбунова Н.Г. К вопросу о датировке комплексов с шурабаштской керамикой в Восточной Фергане//АСГЭ, вып. 17. Л., 1977, Gorbunova N.G. Some questions of the chronology of Fergana ceramics with a red engobe // ASGE. Issue 13. 1971. - p. 93, О датировке Ферганской керамики с красным ангобом // Проблемы археологии Средней Азии. Л., 1968.–С. 39-40

¹⁰ Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы// МИА.№ 118.- –М.–Л., 1962 – С .100-106

Olim M.Pardayevning ta'kidlashicha, ko‘p ming yillik tarixga ega kulolchilik hunarmandchiligining asl rivoji shahar madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda vujudga kelgan. Chunki, markaziy yirik shaharlarda boshqa kasb-korlar qatori kulolchilikka ham katta e’tibor qoratilib, bu soha vakillarining alohida mahallalari barpo etilgan. Bunga ayniqsa, o‘rtasrlarda katta ahamiyat berilgan¹¹. Yu.A.Zadneprovskiy Mingtepa arxeologiyasi bo‘yicha ham o‘z xulosalarini bayon qilgan tadqiqotchidir. 1973-yilda olim Mingtepada katta bo‘lmagan nazorat qazish ishlarini olib borgan¹². Ular stratigrafiya va sopol majmuasi tarkibi masalalarini aniqlashtirishga qaratilgan edi va muhim materiallar to‘planganligi bilan ahamiyatli. Ushbu qazish ishi ikki nuqtada olib borildi. Qazish maydoni 40 kv.m shaharning sharqiy qismida o‘tkazildi. Qidiruv davomida pechlar, sopol buyumlar aniqlangan. Qishloqning markazidagi tepada qalinligi 5 m bo‘lgan qatlamlar aniqlangan. To‘plangan materiallar Marhamat keramika majmuasi to‘g‘risida aniqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Yer osti suvlari paydo bo‘lishi ishning to‘xtatilishiga sabab bo‘lgan. Zadneprovskiyning Matboboyev bilan birgalikda 1991-yil O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi to‘plamida nashr etilgan Ko‘hna Marhamat tarixiga bag‘ishlangan¹³ ilmiy maqolasi ham Mingtepa arxeologiyasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda Marhamat hududida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar hamda qazish ishlari tahlili keltirilgan bo‘lib, 1950, 1987-yillar arxeologik o‘rganishlar va ularning natijalari e’lon qilingan. Stratigrafik kuzatishlar va kulolchilik tahlillari natijalari maqolada yoritilgan.

Ushbu yodgorlikni arxeologik tadqiq etgan arxeolog Boqijon Matboboyevning samarali tadqiqotlari alohida ajralib turadi. Uning rahbarligidagi 1986-yilda O‘zSSR FA Andijon Marhamat bo‘linmasi otryadi tomonidan olib borilgan tekshirish ishlari bir qator hududlarni tekshirgan. Qazish ishlari asosan g‘arbiy mudofaa devorida, 12-13-14-minoralarda olib borilgan. Qazish jarayonining yutug‘i sifatida qal‘a va devorlarni tozalash jarayonida qizil naqshli sopol buyumlar, shuningdek, naqshli bo‘yagan idishlar topilishini ta’kidlashimiz mumkin. Bundan tashqari, qazishmaning shimoliy qismida 1,6-1,8 m balandlikdagi maydon topilgan va unda polga to‘rtburchaklar shaklidagi o‘choq 46X27 sm o‘lchamda qazilgan. E’tiborli jihat qizil naqshli kulolchilik buyumlari barcha madaniy qatlamlarda topilgan. Marhamat kulolchilik majmuasini o‘rganishning ushbu bosqichida shuni ta’kidlash kerakki, tiralgan naqshli sopol idishlar va egilgan qismi bo‘lgan kosa juda kam uchraydi¹⁴. Shuningdek, ilk marotaba tirlab gul solingen idish parchalarining hamda antropzoomaf ya’ni odam va hayvon ko‘rinishi tasvirlari tushirilgan sopol buyumlarning topilishi bu ilmiy yangilik bo‘ldi. Dalvarzin qishlog“ida bronza davridagi bo‘yagan sopol buyumlar topilishi 1953-yildagi Qirg‘iziston arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi natijalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda A.P. Okladnikov 1953 yil, G.F. Debets 1954-1955, V.A.Shishkin, Yu.A. Zadneprovskiyning xizmati katta¹⁵.

B.A. Litvinskiyning 1973-yil Moskvada nashr etilgan G‘arbiy Farg‘ona qabristonlaridagi sopollar tahliliga bag‘ishlangan asari arxeologik qazish natijalarini ifodalovchi asar bo‘lib,

¹¹ П .Мухторқул, Ҳ.Тўракул Глазурованная Керамика Джизакского Оазиса XV-XVI Вв.//**O‘zbekiston Arxeologiyasi 64 № 1 (26) –S .,2022 –B. 64-73**

¹² Заднепровский Ю.А., Дружинина Е.В. Работы Ферганской Экспедиции //Археологические Открытия 1973 . –М.,1974.–С.480.

¹³Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат (Некоторые Итоги Изучения) // ИМКУ. Вып. 25.–Т.,1991 –С.62-72

¹⁴Turdixo‘jayeva M.M. Farg‘ona vodiysida joylashgan Axsikent va Mingtepa yodgorliklarining arxeologik o‘rganilishi// Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. –T., 2021. –B.481-487

¹⁵Турдихўжаева М.М. Фаргона водийсида амалга оширилган археологик экспедициялар тарихидан // Фаргона водийси тарихининг долзарб муаммолари.–Н.,2020.–Б.60-63.

G‘arbiy Farg‘ona qabristonlarida olib borilgan qazish ishlarining muammolariga bag‘ishlangan. Olimning ma‘ruzalarida keltirilgan¹⁶ G‘arbiy Farg‘ona qabristonlaridan qazib topilgan kulolchilik buyumlari to‘g‘risidagi materiallar umumiy xarakterga ega va albatta muhim hisoblanadi. Mutaxassis asarining e’tiborga molik tomoni Farg‘onaning g‘arbiy qismidagi qabristonlardan olingen kulolchilik buyumlarini o‘rganishda vodiyning boshqa hududlari va unga tutash hududlar hatto Toshkent sopollari bilan uzviy bog‘liq holda olib borilganidadir. Majmualarning aksariyati muallif tomonidan Moskva, Leningrad, O‘zbekiston, Qиргизистон va Qozog‘istondagi muzey kolleksiyalari tahlili bilan o‘rganilgan. Tadqiqotchi tomonidan Farg‘ona qabristonlari va aholi punktlaridan topilgan kulolchilik buyumlari o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda farqli jihatlar ko‘rsatib berilgan va muammoli jihatlari hal etishga harakat qilingan. Shu bilan birga, Litvinskiy O‘rta Osiyoning turli mintaqalaridagi qabristonlarning kulolchilik buyumlarining farqlari va o‘zaro bog‘liqligini kuzatgan va o‘ziga xos O‘rta Osiyo-Sarmatiya “kulolchilik” aloqalarini ko‘rsatgan. Sopol buyumlar shakllarining evolyutsiyasi va xronologiyasi masalalari ham asarda tadqiq qilingan. Arxeolog kulolchilikning tasnifini keltirgan bo‘lib, ularni 10 ta turli guruhlarga bo‘lgan. Statistik hisob-kitoblar ham asardan o‘rin olgan bo‘lib, formulalar asosida sopol tipalogiyasi tahlili keltirilgan. Tadqiqot davomida 600 ga yaqin sopol idishlar bilan tanishishga muvaffaq bo‘lingan. 10 dan ortiq ajratib saralangan sopol turlari yana qayta alohida turkumlangan. Barchamiz bilamizki, sopol tipologiyasining yagona tamoyillari hali arxeologik adabiyotlarda deyarli Litvinskiyga qadar ishlab chiqilmagan. Ammo uning tasniflari aniq bo‘lmasa-da ushbu ishga o‘z yondoshuvini berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, eng qiyin tahlil hisoblanmish tutqichsiz ko‘zalarni tasniflashda tadqiqotchi ancha qiynalgan edi. Bir-biridan keskin farq qiluvchi ushbu turlarni aniq ajratib turadigan belgilarni keltirishda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelgan.

Quvada ilk o‘rta asrlardagi sopol buyumlar arkda, shahristonda va shahriston tashqarisidagi arxeologik qazishmalarda qayd etilgan. Bu materiallar qisman V.A.Bulatova monografiyasida, hamda D.P.Varxotovaning Quva sopollariga bag‘ishlangan maqolasida e’lon qilingan. Quva sopollari tahlili D.P.Varxotovaning 90-yillarda e’lon qilingan maqolasida to‘la bo‘limgan holda e’lon qilingan. Olima VII-VIII asr Quva sopollarini “kuygan qatlamdan” deb alohida qayd etadi, ushbu fikr Matboboyevning qazish tadqiqotlari natijalarida ham e’lon qilingan. Bundan ko‘rinadiki, VIII asrga oid kuygan qatlamlarning butun yodgorlikda uchrashi Quvada bir vaqtning o‘zida kuchli yong‘in bo‘lgan¹⁷. Ushbu mavzuda uchraydigan boshqa ilmiy ishlar tekshirilganda ham aynan mana shu xulosa to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, degan qarorga keldik. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, V.A. Bulatova va D.P. Varxotovalarning tadqiqotlarida VII-VIII asr materiallari shahriston tashqarisidagi alohida tepalikda sof holda topilgan, Matboboyev olib borgan shahristondagi kuzatuvar paytida esa ilk o‘rta asr kulolchilik idishlari ancha qalin qatlamda uchraydi. Ular keyingi o‘rta asr qatlamlari ostidan kovlab ochilgan. Muallif ko‘p hollarda VII-VIII asrdan keyingi davrga oid materiallar aralashib ketganligini o‘rganilayotgan davrdan keyingi qurilishlar yoki o‘sha paytdagi siyosiy notinchlik jarayoni natijasidagi vayronagarchiliklar ham sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkinligi bilan izohlaydi. VIII asrning birinchi yarmida yuz bergen kuchli yong‘in izlari shundan dalolat berishini ta’kidlaydi.

¹⁶ Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. –М., 1973. 258 с

¹⁷ Турдиҳўжаева М.М. Археологик тадқиқотлар ҳамда ёзма манбаларда Фарғона водийсининг кўхна шаҳри – Кува // Шарқ мамлакатларининг ривожлашиш хусусиятлари: тарихи, антропологияси ва фалсафаси. – Т., 2021.–Б.104-108

Matboboyev doktorlik dissertatsiyasida ham ilk o'rta asrlar uy-joylari tarixi vodiy arxeologiyasida yaxshi o'rganilmaganligini hisobga olib, qazishma jarayonida qazib ochilgan xonalardagi me'moriy qoldiqlar tavsifini keltirib o'tgan. Olim Quvaning ilk o'rta asrlarda vodiyning janubiy qismida kulolchilik markazi sifatida faoliyat ko'rsatganligini ta'kidlaydi. Hatto ibodatxona ham shahristondan tashqarida qurilganligi e'tiborni tortadi. Bu kamdan kam kuzatiladigan holatdir¹⁸. Quva shahristonida 1996-1998-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida birinchi bor ilk o'rta asrlarga doir kulolchilik namunalarining topilishini ilmiy yangilik desak adashmagan bo'lamiz.

Quva sopol idishlari kulolchilik charxida yoki qo'lida yasalganligi ma'lum. Yodgorlikda xumlar ko'plab uchrab, ular oziq-ovqat mahsulotlari va suv saqlashda foydalilanligani etnografiyadan va kundalik tajribadan ma'lum. Ular bir-birlaridan o'lchamlari, gardishi va tana qismlarining shakllari bilan farqlanadi.

Ularning gardishi va tana qismlarining sirti gul solib bezalgan. 1998-yili topilgan xumlarning bezatilishida quyidagi turlari bor:

- 1) Chizib gul solish
- 2) Kesib, o'yib gul solish
- 3) Muhrab gul solish
- 4) Kertib gul solish

Bundan tashqari xumlarning ba'zilariga tamg'alar ham tushirilgan.

"Fan haqida suhbatlar" nomli kichik to'plamda 1989-yil nashr etilgan Y.Qosimovning "Chust manzilgohlari izidan" nomli kichik tadqiqoti to'laqonli arxeologik materiallar tahliliga bag'ishlangan. Chustning arxeologik o'rganilishini yorituvchi ushbu tadqiqotda xalq tilida Buonamazor deb ataluvchi Chust shahridan topib o'rganilgan sopol buyumlar tahlili berilgan. Farg'ona vodisida Buonomozor bronza davriga oid yaxshi o'rganilgan yodgorliklardan biri bo'lib, unga tegishli manzilgoh Andijon viloyati Jalolquduq tumanidagi Dalvarzintepadadir. Ushbu yodgorlikni qazish jarayonida arxeologlar 35 xil shaklga ega bo'lgan sopol buyum namunalarini topganlar. Muallif keltirishicha, buonomozorliklar kulolchilik charxini bilmaganlar va ikki qavatli sopol pishirish xumdonlaridan ham bexabar bo'lganlar. Topilgan idishlar asosan qo'lida yasalgan¹⁹. Qazilmalar vaqtida manzilgohdan chustliklar mahorat bilan qo'lida yasagan guldor sopol qozon va tovoqlar, turli shakldagi piyolalar, xurmachasimon idishlarning topilishi bronza davrida yashagan aholining ijtimoiy hayoti rivoj topganligini anglatadi²⁰.

I.Ahrorov hamda O'.Qosimovlarning yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida vujudga kelgan "Axsikent tarixidan lavhalar" nomli kichik risololari Farg'ona vodisining ko'hna shahri Axsikentning qisqacha tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda arxeologik qazishma natijalari tahlili asosida antik davr Axsikent kulolchilik na'munalari hisoblagan turli hajmdagi kosalar, xumlar, sirti angoblangan silliq qadahsimon idishlar haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Arxeologiyada sopol buyumlar madaniyatdagi katta birlikni, umumiylikni aniqlash uchun eng yaxshi omildir. Sopollar ommaviy tus olgan predmet bo'lib, uning ko'p topilishi arxeologiya nuqtai nazaridan turkumlarga bo'lish uchun ishonarli asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bir-biriga o'xshaganida ham idishlarning shakli va naqshlari uning ko'p variantlarini aniqlashga imkon beradi²¹. B.X.Matboboyev, Z.Z.Mashrabovlarning "Andijon

¹⁸Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. –С.,2009.–Б.119.

¹⁹Қосимов Й. Чуст манзилгоҳлари изидан.–Т.,1989.–Б.3-16

²⁰Қосимов Й. Намангандарихидан лавхалар.–Т.,1990.–Б.6

²¹ Arsikovskiy A.V. Arxeologiya asosolari -T.,1970. –B.75-76

tarixi (qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha)”²² nomli nashrlari muammo doirasida muhim hisoblanadi. Arxeologik va yozma manbalarning qiyosiy tahlili asosida Farg‘ona vodiysining yirik va qadimgi markazlaridan birining yuzaga kelishi va shakllanish tarixini ochib berishga uringan ushbu kitob Andijon hududida eng qadimgi arxeologik joylarning ochilishi hamda shaharlarning yuzaga kelish tarixi, topografiyasi va boshqa masalalarga yangicha ilmiy yondoshuvlarni beradi. To‘liq holda sopol buyumlari va kulolchilikka bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, kitobning arxeologik tadqiqotlar qismida bir qator sopol topilmalar tahlili keltirilgan. Xususan, Chordonani qazish jarayonida singan idish qoldiqlari topilgan va o‘rganilgan. Unga ko‘ra topilmalarning bir qismi kulolchilik charxida tayyorlanganligi, bir qismi esa dastgohda tayyorlangan ko‘za parchalariga to‘g‘ri kelishi aytildi. Ushbu yodgorlikdan topilgan topilmalarning aksariyati sopol idishlar va kulolchilik buyumlaridan iborat bo‘lib, arxeolog tadqiqotchilar tomonidan ushbu topilmalar xronologik jihatdan quyidagicha guruhlangan:

1. Milodiy asr bo‘sag‘asiga qadar bo‘lgan davrga tegishli kulolchilik buyumlari
2. Milodiy birinchi asrlar kulolchilik mahsulotlari
3. III-IV asrlar kulolchiligi
4. V-VI asrlar kulolchiligi
5. VII-VIII asrlarga oid sopol buyumlar.

Bundan tashqari Andijon viloyatining boshqa turli katta kichik shahar va qal’alaridagi tizimli kuzatuv ishlari natijasida bir qator sopol buyumlar topib o‘rganilib mualliflar tomonidan tahlil etilgan²³.

Muhammadjon Isamiddinovning 2021-yil nufuzli xalqaro jurnalga bergen maqolasini ushbu muammo doirasida eng so‘nggi xulosalarni bera olgan tadqiqotlardan biri deb ayta olamiz²⁴. Farg‘ona vodiysidan topilgan sopol buyumlar xronologiyasida shu kunga qadar o‘rganilayotgan izlanishlarda bir qator kamchiliklar mavjud ekanagini tadqiqotchi ko‘plab sabablar bilan ta’kidlab o‘tgan. Farg‘ona vodiysining qadimiylar tarixi va madaniyati bilan shug‘ullanuvchi arxeologlarning ko‘philiyi vodiy moddiy madaniyati haqida tadqiqot olib borganda, uning boshqa hududlardan, ayniqsa, kulolchilik buyumlari bilan ajralib turishini, deyarli barcha tarixiy jarayonlarda bu jihat keskin farqlanishini aytadilar. Biroq Isomiddinov Farg‘ona vodiysi yodgorliklaridan topilgan kulolchilik buyumlarini boshqa, qo‘sni viloyatlar moddiy madaniyati bilan qiyoslaganda, ular o‘rtasida katta ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar bo‘lganligini isobotlaydi. Maqola Farg‘ona vodiysining qo‘sni hududlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari xususida ko‘plab materiallarni taqdim etgan. Shuningdek, olim Farg‘ona kulolchiligidagi yasalgan va qizil angob bilan qoplangan idishlarning paydo bo‘lishi vaqtida ham arxeologlar tomonidan ancha noto‘g‘ri aniqlanganligini ochiqchasiga ta’kidlaydi.

Balki bu chalkashliklar sopol buyumlarni o‘rganishda fizik va kimyoviy usullar imkoniyatlaridan unumli foydalanilmagani natijasidir. Bunday noqaniqliklar talaygina ekanligiga ishora qilgan holda, bir qator takliflarni o‘rtaga tashlagan. O‘ylaymizki, bunday muammoli holatlarda arxeologik tadqiqotlar zamonaviy usullar yordamida amalga oshirilib aniq xulosalar berilsa, bu katta yutuq bo‘lardi.

²²Матбобоев Б.Х, З.З.Машрабов. Андижон тарихи (қадимги даврлардан XX аср бошларигача)”²² –Т.,2014 280 б.

²³o‘sha manba –Б.40-44

²⁴Isamiddinov M.On some issues of chronology of ancient Fergana and Sugd cultures// Central Asian journal of social sciences and history 2021 –P.8-12

M. Saidov va Sh. Nasriddinovlar hammuallifligida nashr etilgan Namangan viloyatidagi yangi topilmalarga bag'ishlangan ilmiy maqolani o'qish jarayonida hali hanuz vodiy hududidan arxeologik topilmalar topilishda davom etayotgani, ayniqsa ushbu topilmalar aholi xonadonidagi qurilish jarayonlarida bo'layotgani va bunga xalqimizning be'tibor bo'lmayotgani odamni xursand qilmoqda. Chunki so'nggi vaqtarda arxeologik yodgorliklarning ma'lum sabablarga ko'ra yo'q qilinayotgani haqida ko'plab xabarlargacha kelmoqdamiz. Xalqimizning arxeologik topilmalarga nisbatan beparvo bo'lmayotgani quvonarli hol, albatta. Namangan viloyatining aholi turar joylaridan so'nggi yillarda tasodifan turli xumlarning aniqlanishi arxeologiyadagi yutuqlarni yanada kengaytirib bormoqda. Xususan, Chortoq, Pop, To'raqo'rg'on tumanlarida aniqlangan xumlar majmuasi M. Saidov va Sh. Nasriddinovlar tomonidan tasniflanib, ularning o'ziga xos tomonlari aniqlandi²⁵. Olimlar tomonidan ushbu topilmalar respublikamizning boshqa hududlari materiallari bilan qiyoslanib, topilmalarning davri so'nngi antik davrga tegishli ekani, xumlardan esa qadimda odamlar oziq ovqat ombori sifatida foydalishganini isbot qildilar. Ushbu hududda bunday xumlarning ko'p tarqalgani aytilayotgan davrda sug'orma dehqonchilik keng rivojlanganligini anglatadi. Topilgan xumlarning soni ular topilgan hududlarning kattakichikligiga bog'liq bo'lga. Eng qiziq tomoni ushbu xumlarning tahlili natijasi xitoy manbalari ma'lumotlarni isoblaydi, ya'ni Davan davlati haqidagi ma'lumotlarda Farg'ona hududida bog'dorchilikda uzum yetishtirish hamda uzum sharbati tayyorlashda tajribali bo'lga shaxslarning ko'pligi, boy xonadonlarda sarxush qiluvchi vinolar xumlarda saqlanishi haqidagi Sima Szyanning ma'lumotlari aniqligini ko'rsatadi.

XULOSA

Umumiylar oladigan bo'lsak, qadimgi kulolchilik buyumlarini o'rganish antik davrda sodir bo'lga va pirovardida jamiyatning zamonaviy etnik rasmini shakllantirishga olib kelgan etnik-madaniy jarayonlarning o'ziga xos yo'nalishi va xronologiyasini qayta qurish imkonini beradi²⁶. Hozirgi vaqtida esa arxeologiyada ushbu materialni tahlil qilish metodologiyasini tobora ko'proq o'rganish talab etilmoqda. Bunda esa arxeologik tadqiqotlar an'anaviy arxeologik usullar, shuningdek, tabiiy fanlar yordamida tadqiqot natijalarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Keramika bilan ishlashda qo'llaniladigan usullarni to'rt guruhga bo'lish mumkin: 1) texnologik axborotni olish usuli; 2) shakllarni o'rganish usuli; 3) bezaklarni tahlil qilish usuli; 4) kulolchilikda madaniy an'analarni qayta tiklash usuli. Har bir tadqiqot shu ko'rsatilgan usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi sopol buyumlar masalasini o'rganishdagi chalkashliklarga barham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arsakovskiy A.V. Arxeologiya asosolari. –T.,1970. 295 b.
2. Аҳмедов. Ж. Моддий маданият ёдгорликларини консервация қилиш, таъмирлаш ва сақлаш/Ўзбекистонда Ижтимоий Фанлар №4/2021. –Б.46-51
3. Ахроров И. Керамика Ферганы IX-XII вв. Автореферат. –Т., 1966 .13 с.
4. Бердников И.М., Лохов Д. Н.. Керамика в археологии: описание, анализ, методы исследования.,Учеб. Пособие Изд-Во ИГУ, 2014. 163 с.

²⁵Сайдов, М., Насридинов Ш. Намangan viloyatidagi янги arxeologik topilmalari// O'zbekiston arxeologiyasi 64 № 1 (26) S – 2022 –B. 89-95.

²⁶ Молодин В.И., Мыльникова Л.Н.. Теория и практика исследования древней керамики: традиционные и новейшие методы// Самарский научный вестник. 2015. № 3 (12) –C.122-127.

5. Бернштам А.Н., Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26.1952. –С.186-189
6. Gorbunova N.G., The culture of ancient Ferghana. –L.,1986. –P.39-42
7. Глушков И. Г. Керамика Как Археологический Источник. –Н.,1996. 328 с.
8. Хошимов Б. Фарғонашунос археологлар . –Ф., 2020. 353 б.
9. Isamiddinov M. On some issues of chronology of ancient Fergana and Sugd cultures// Central Asian journal of social sciences and history 2021 –P.8-12
10. Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. –М., 1973. 258 с
11. Матбобоев. Б.Х., Машрабов З.З. Андижон тарихи (қадимги даврлардан XX аср бошлигигача) –Т.,2014; Матбобоев Б.Х., Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида): т.ф.д., дисс.–С., 2009. 569 б
12. Оболдуева.Т.Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского канала имени И.В.Сталина//Труды института истории и археологии. Том IV. –Т., 1951.–С.8-10.
13. Пардаев М, Ҳасанбоев Т, Глазурованная Керамика Джизакского оазиса XV-XVI вв. O‘zbekiston Arxeologiyasi 64 № 1 (26) –S., 2022 В. 64-73
14. Қосимов Й., Чуст манзилгоҳлари изидан. –Т.,1989. 29 б Қосимов. Й., Наманган тарихидан лавҳалар. –Т.,1990. 56 б.
15. Сагдуллаев А . Археологик ёдгорликлар ва қадимий тарих масалаларини ўрганилишга доир айрим ёндашувлар ҳақида//O‘zbekiston Arxeologiyasi 64 № 1 (26) –S., 2022 –В. 74-80
16. Сайдов М., Насриддинов Ш., Наманган вилоятидаги янги археологик топилмалар// O‘zbekiston Arxeologiyasi 64 № 1 (26) –S., 2022 –В. 89-95
17. Турдихўжаева М.М.Археологик тадқиқотлар ҳамда ёзма манбаларда Фарғона водийсининг кўхна шаҳри Қува // Шарқ мамлакатларининг ривожланиш хусусуиятлари: тарихи, антропологияси ва фалсафаси. Т- 2021.Б.104-108; Турдихўжаева М.М. Фарғона водийсида амалга оширилган археологик экспедициялар тарихидан//Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари –Н.,2020. –Б.60-63.; Turdixo‘jayeva M.M. Farg‘ona vodiysida joylashgan Axsikent va Mingtепа yodgorliklarining arxeologik o‘rganilishi//Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. –Т., 2021. –В.481-487
18. Заднепровский Ю.А. , Дружинина Е.В. Работы Ферганской Экспедиции //Археологические Открытия 1973 . . –М.,1974. –С.480.; Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат (Некоторые Итоги Изучения) // ИМКУ. Вып. 25.–Т.,1991 –С.62-72